



ISLOM FIQHI AKADEMIYASI FAOLIYATI

Isroilova Mushtariy Ishoqjon qizi

O'zbekiston xalqaro islamshunoslik akademiyasi

"Islamshunoslik" ta'limiyo'nalishi 4-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Qambarov A'zamxon

O'zbekiston xalqaro islamshunoslik akademiyasi

"Ijtimoiy fanlar va huquq" kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada usulul fiqh va furu al-fiqh ilmiga oid asarlar, xususan boburiylar sultanati davrida yaratilgan, mo'tabar fiqhiy manba hisoblangan "Fatovoyi Olamgiriya" asarining manbaviy asoslari mazkur to'plamdag'i va "Muxtasarul viqoya" asaridagi "Nikoh kitobi" misolida ko'rsatilgan hamda asarning yaratilishida muhim manba hisoblangan asarlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: fiqh, usul, poklik, furu, manba, bob, bo'lim, nikoh, ijob, qabul, rukn, shart, sultanat.

Fiqhiy yondashuv bu muammolarga faqat taqiqlovchi yoki ruxsat beruvchi hukmlar chiqarish bilangina cheklanib qolmaydi. U ijtimoiy adolat, inson manfaatlari, umumi foyda, zararni bartaraf etish kabi shariat maqsadlarini ham inobatga olgan holda, muammolarning mohiyatini tushunishga harakat qiladi. Shuningdek, zamonaviy ijtimoiy muammolarga javob berishda ijтиҳод, маслаҳат, урғ, зарурат, истиҳсон каби fiqhiy tamoyillar faol qo'llanilmoqda.

Ayni paytda xalqaro miqyosda faoliyat yuritayotgan fatvo markazlari, islam fiqh akademiyalari va mutaxassis olimlar jamiyatning zamonaviy ehtiyojlariga mos fatvolar chiqarish orqali shariat hukmlarini hayotga tatbiq etishmoqda. Bu faoliyat, o'z navbatida, islam huquqining zamonaviy muammolarni hal qilishdagi moslashuvchanligini va dinamik xususiyatini namoyon etadi.

Zamon o'zgarishi, hayot kechirishning murakkablashishi, fan va taraqqiyoti kabi omillar o'ziga yarasha munosabatni taqozo qila boshladi. Endi dunyoda bo'layotgan o'zgarishlarni yakka shaxslar yoki murakkab muassalar orqali qamrab olish qiyinlashdi. Xususan, bu o'zgarishlarga shariat bo'yicha munosabat bildirish, ular haqida to'laqonlik fatvolar chiqarish murakkablashdi. Bu va bunga o'xshash boshqa omillar faqihlarning birgalashib ish olib borishlarini talab qiladi.

Yuzaga kelgan vaziyatlarga javob o'laroq Islom fiqli akademiyasi tuzila boshladi. Islom fiqli akademiyasi 1977-yili "Islom olami uyushmasi" qoshida "التابع للإسلامي" tashkil etildi²⁹. Islom fiqli akademiyasining maqsadi quydagilardan iborat: Dunyo musulmonlari hayotida yuz berayotgan muammolarga shar'iy hukimlar orqali oydinlik kiritish va yechim toppish, fiqhiy hukimlarning zamonaviy qonunlar bilan qiyosiy

²⁹ Haydarov Mirodil Mirvahidovich. Zamonaviy fiqhiy masalalar. – Toshkent: Tafakkur, 2024. – B. 101.



o‘rganish, har bir zamon va makonda islom fiqhi musulmonlarining muammolariga javob bera olishini isbotlash, fiqh sohasida ilmiy izlanishlar olib borishni targ‘ib etish, fatvolar va faqih ulamolarning qarashlarini tahlil etish va uni musulmonlarga yetkazish, shariat qoidalariga nisbatan yuzaga keladigan Shubha va muammolarni bartaraf etishdan iborat. Bundan tashqari akademiya tomonidan “Islom fiqhi akademiyasi” davriy jurnali chop etib boriladi.

Makka shahrida bo‘lib o‘tgan musulmon mamlakatlari rahbarlarining uchinchi Islom sammiti qaroriga muvofiq, Islom xamkorlik tashkiloti qoshida Xalqaro Islom fiqhi akademiyasi (qaror raqami: 3/8-Th (Q.A.)) 1401 hijriy yilning Rabiul avval oyining 19–22 kunlari (milodiy 1981-yil 25–28-yanvar) tashkil topdi. 1983-yil 7-9-iyun kunlarida esa Makkai Mukarammada Akademianing qurultoyi bo‘lib o‘tdi. Akademianing bosh qarorgohi Saudiya Arabistonining Jidda shahrida joylashgan bo‘lib, u mustaqil yuridik shaxs maqomiga ega³⁰.

Ushbu Akademiya Islom Konferensiyasi tashkiloti -Islom davlatlari qoshidagi muassadir. Uning to‘liq nomi “Islom Konferensiyasi tashkiloti xuzuridagi xalqaro Islom fiqhi akademiyasidir”. Qarorgohi Saudiya Arabistoni Qirolligining Jidda shahrida joylashgan³¹.

Ushbu Akademianing tashkil etilishidan maqsad zamonaviy hayot muammolarini o‘rganish, zamonaviy ijtimoiy muammolarni tahlil qilish va ularning fiqhiy uslublarini o‘rganishdir. Ma’lumki so‘ngi yigirma yilda globallashuv jarayoni sur’at bilan o‘z tasiri doirasini kengaytirib bormoqda. Ushbu jarayon musulmon jamiyatlarini ham chetlab o‘tgani yo‘q.

Globallashuvda madaniy jarayonlar, xususan milliy-diniy qadryatlarda o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Bu vaziyat o‘z o‘rnida musulmon jamiyatida ijtimoiy masalalarni yuzaga keltirdi. Zamon rivojlanib borgani sayin, zamonaviy ijtimoiy masalalar ham yuzaga kelmoqda. Masalan: nikoh va nikohlanish jarayonida, taloq va taloq lafzini ifodalovchi mahalliy so‘zlar, ijtimoiy bayramlarni nishonlash, diniy tashkilotlardagi tadbirlarni o‘tkazishga oid, g‘ayridinlarga bag‘rikenglik, savdo turlarining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmasligi oqibatida yuzaga keluvchi ijtimoiy ziddiyatlar, valyuta va birjalar, jinsni o‘gartirish, siyam egizaklari, a’zolarni ko‘chirib o‘tkazish, surent onalik, kredit masalalari, kosmetik jarrohliklar va shunga o‘xshash turli hil zamonaviy ijtimoiy masalalar yuzaga kelmoqda.

Zamonamizda ijtimoiy masalalardan nikoh va nikohlanishga oid akademiya quyidagicha fatvo va qarorlarni ishlab chiqqan. Islom hamkorlik tashkilotiga qarashli Xalqaro Islom fiqhi akademiyasi kengashi o‘zining yigirma uchinchi sessiyasini Madina shahrida hijriy 1440-yilning 19-23-safar kunlari, ya’ni milodiy 2018-yil 28-oktabrdan 1-noyabrgacha bo‘lgan davrda o‘tkazdi. “Nikoh shartnomasining turmush o‘rtoqlar mulkiga ta’siri” mavzusi bo‘yicha Kengashga taqdim etilgan tadqiqotlar bilan tanishib, uning atrofida bo‘lib o‘tgan keng muhokamalarni tinglab, 227(23/11) qarorida quyidagicha qaror qabul qilindi.

³⁰ Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Fiqhiy yo‘nalishlar va kitoblar. – Toshkent: Sharq, 2011. - B. 261

³¹ Abdulhay Leknaviy. Umdatul-r-rioya ala Sharhi-l-Viqoya (Sharhul Viqoya asariga bosh rioya). – Bayrut: Dorul kutubil ilmiyya. 2009.



Birinchi masalada quydagicha aytilgan “Har bir turmush o‘rtog‘i o‘zining mustaqil moliyaviy aktivlariga ega va shunga ko‘ra, ular har biriga tegishli bo‘lgan pul va huquqlarni evaziga yoki xayr-ehson sifatida tasarruf etish huquqiga ega”.

Ikkinci masalasida quydagicha aytilgan “Har bir turmush o‘rtog‘ining mulki bo‘lgan narsa, nikoh shartnomasi bo‘yichami yoki yo‘qmi, uning egasining shaxsiy mulki hisoblanadi va keyinchalik uning merosxo‘rlariga o‘tadi”. Uchinchi masalasida quydagicha aytilgan “Agar er-xotinlar o‘z ixtiyori bilan va ixtiyori bilan pullarini taqsimlashga rozi bo‘lsalar, Islom shariatida buning hech qanday aybi yo‘q va ularni majburiy belgilab yuklash joiz emas”.

To‘rtinchi masalasida quydagicha aytilgan “Agar nikoh munosabatlari ajralish, ajralish yoki xul’ bilan yakunlansa va bu uning zarariga sabab bo‘lsa, xotin taloqdan keyin hikmatli shariat ajrashgan ayol uchun ajrashgandan bahramand bo‘lish haqida qaror qilganini zamonda tatbiq qilib, yetkazilgan zararni qoplashni talab qilib, sudga murojaat qilishga haqlidir”.

Beshinchi masalasida quydagicha aytilgan “davlat yoki fuqarolik institutlarini tashkil etishga chaqirish, ajrashgan ayollarga ularning ehtiyojlarini qondirish uchun g‘amxo‘rlik qilish”³².

Zamonaviy ijtimoiy muammolar insoniyat hayotining har bir sohasida yuzaga kelayotgan murakkab va ko‘p qirrali masalalardir. Islom huquqi bu masalalarga faqatgina an’anaviy qarashlar asosida emas, balki zamon va sharoitlar o‘zgarishlarini e’tiborga olgan holda, holis va maqbul yondashuvlar bilan yechim topishga harakat qildi. Shuning uchun ham hozirgi kunda musulmon jamiyatlari duch kelayotgan ijtimoiy muammolarni fiqhiy nuqtai nazardan o‘rganish nihoyatda dolzarb hisoblanadi.

Islom huquqiga oid zamonaviy ijtimoiy muammolar qatoriga bir necha sohalardagi dolzarb masalalarni kiritish mumkin. Jumladan, oilaviy hayotda ajralishlar sonining ko‘payishi, turmush o‘rtog‘i tanlashdagi axloqiy me’yorlarning buzilishi, nikoh va taloqdagi noto‘g‘ri yondashuvlar hozirda keng tarqalgan muammolardan hisoblanadi. Shuningdek, sun’iy urug‘lantirish, surrogat onalik, jinsni o‘zgartirish, eutanaziya, klonlash kabi tibbiy va biologik jarayonlar ham Islom fiqhida turlicha baholanmoqda. Ularning har biri alohida shar’iy tahlil va ijtihog talab etadi.

Bundan tashqari, moliyaviy va iqtisodiy sohada yuzaga kelgan muammolar – foizli kreditlar, kripto valyutalar, sug‘urta, bank amaliyotlari va shubhali moliyaviy vositalarning hukmiga doir masalalar ham fiqhiy e’tibordan chetda qolmaydi. Ko‘plab musulmon davlatlarida va musulmon jamoalari yashayotgan g‘arbiy mamlakatlarda bu masalalarga oid fatvo markazlari faoliyat yuritmoqda. Ular Qur’oni karim, Sunnat, ijmo, qiyos va maqosid ash-shari’a asosida shariatga zid bo‘lmagan zamonaviy echimlar taklif etmoqda.

Islom madaniyati va shariat hukmlarining o‘ziga xosligiga sodiqlikni ta’kidlab, islom hukumatlari va ularning vakillari tomonidan oila bilan bog‘liq nizomlar va kelishuvlarda Islom shariatiga zid bo‘lgan ba’zi qoidalarga nisbatan bildirilgan izohlarni hurmat qilish.

³² www.fiqhacademy.org.sa



Oila a'zolarining huquq va majburiyatlarini tartibga soluvchi kodeksni tayyorlash bo'yicha qo'mita tuzish, buning natijasida islom huquqiga mos keladigan oila qonuni loyiha si ishlab chiqiladi.³³

Akademiya hozirgi kundagi ijtimoiy masalalardan biri "Islomda jinsni o'zgartirish hukmini tushintirish mavzusida" 25 (25/13) raqam ostidagi qaror qabul qilgan. Islom hamkorlik tashkilotiga qarashli Xalqaro Islom fiqhi akademiyasi ken gashi o'zining yigirma beshinchi sessiyasini Saudiya Arabiston Podshohligining Jidda shahrida hijriy 1444-yilning 29-rajab – 3-sha'bon oralig'ida o'tkazdi. Jinsini o'zgartirish to'g'risidagi qaror, shuningdek, akademiya a'zolari va eksperltlari ishtirokida bu boradagi muhokamalar va muhokamalarni tinglab, quyidagicha qaror qabul qilindi³⁴.

"Gender o'zgarishi", erkakni ayolga yoki ayolni erkakka aylantirishni anglatadi. Islom shariatida jinsni o'zgartirish taqiqlangan, chunki u Alloh taoloning yaratganini o'zgartirmoqda va u Alloh taoloning quyidagi kalimalariga kiritilgan: "Ularni adashtiraman, xomhayollarga solaman, ularga amir qilsam, chorvalarning qulqolarini kesarlar va ularga amr qilsam, Allohnинг yaratganini o'zgartiralar" (Niso surasi 119-oyat)³⁵.

Agar er zohiran ayolga aylansa, xotin nuqson tufayli nikohni bekor qilishni talab qilishga haqlidir. Agar xotin o'zini tashqi tomondan erkakka aylantirsa, er uni taloq qilishga haqli. Erkak va ayolga oid qonun qoidalari, jumladan, diniy va fuqarolik burchlari va huquqlari, ulardan biri tashqi ko'rinishda erkakdan ayolga yoki ayoldan erkakka o'zgarishidan oldin qanday bo'lsa, shunday bo'lib qoladi, ayniqsa vasiylik, parvarish va meros qoidalariiga nisbatan. Buning sababi shundaki, o'zlarini ayol yoki erkakka aylantirish haqiqiy o'zgarish emas, balki shifokorlar aniqlaganidek, aniq o'zgarish hisoblanadi. Ulardan biri ushbu harakatni amalga oshirishdan oldin belgilangan qoidalarga ta'sir qilmaydi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ijtimoiy muammolarni Islom huquqi doirasida tahlil qilish nafaqat shariatni zamon bilan uyg'un holda rivojlantirish, balki musulmon jamiyatlarining barqarorligi va ma'naviy salohiyatini oshirish uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu yo'lda fiqh ilmining izchilligi, moslashuvchanligi va har bir masalaga individual yondashuvi eng muhim vosita hisoblanadi. Shu sababli, zamonaviy sharoitda shariatga muvofiq va ijtimoiy ehtiyojlarga mos echimlar ishlab chiqish islom huquqshunosligining dolzarb ilmiy va amaliy vazifasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Haydarov Mirodil Mirvahidovich. Zamonaviy fiqhiy masalalar. – Toshkent: Tafakkur, 2024. – B. 101.

³³ www.fiqhacademy.org.sa

³⁴ Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "Tafsiri Hilo l" (Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri). Hilol-Nashr, Toshkent, 2017. 1-juz. – B. 595.

³⁵ A. Mansur. tahrir hay'ati: Qur'oni Karim: ma'nolarining tarjima va tafsiri. Tarjima va tafsir muallifi: Usmonxon Alimov, Rahmatulloh qori Obidov, N.Ibrohimov va boshq.; mas'ul muharrir: M.Ahmadjonov. – Toshkent: TIU, 2018. – 324.



2. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Fiqhiy yo‘nalishlar va kitoblar. – Toshkent: Sharq, 2011. - B. 261
3. Abdulhay Lakanviy. Umdat-u-r-rioya ala Sharhi-l-Viqoya (Sharhul Viqoya asariga bosh rioya). – Bayrut: Dorul kutubil ilmiyya. 2009.
4. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Tafsiri Hilol” (Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri). Hilol-Nashr, Toshkent, 2017. 1-juz. – B. 595.
5. A. Mansur. tahrir hay’ati: Qur’oni Karim: ma’nolarining tarjima va tafsiri. Tarjima va tafsir muallifi: Usmonxon Alimov, Rahmatulloh qori Obidov, N.Ibrohimov va boshq.; mas’ul muharrir: M.Ahmadjonov. – Toshkent: TIU, 2018. – 324.
6. www.fiqhacademy.org.sa

